

TEMURIYLAR DAVRIDA SOLIQ YIG'UVCHI AMALDORLAR

Turdaliyeva Gulasal Abdusalom qizi

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

Qo'shtepa tumani 19-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada temuriylar davrida soliq yig'uvchi amaldorlar va ularning vazifalari haqida atroflicha fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek maqolada, "Temur tuzuklari" asarida keltirilga amaldorlar haqidagi fikrlar, qarashlar va ularning vazifalari, qaday bo'lishi lozimligi haqidagi fikrlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Tarix, amaldor, sodiq, yozma manbalar, vazirlar, "Temur tuzuklari", odil hukmdor, mahalla oqsoqollari.

НАЛОГОВЫЕ ЧИНОВНИКИ ВО ВРЕМЕНА ТЭМУРИ

Турдалиева Гуласал Абдусалам қизи

Независимый научный сотрудник Ферганского ГУ,

Учитель 19-й школы Коштепинского района

Абстрактный. В этой статье есть подробные мнения о сборщиках налогов и их обязанностях в период Тимуридов. Также в статье анализируются мнения о чиновниках, взгляды и их обязанности и какими они должны быть в произведении «Законы Темура».

Ключевые слова. История, официальные, достоверные, письменные источники, министры, «правила Темура», праведный правитель, соседские старейшины.

TAX COLLECTING OFFICIALS IN THE TIME OF THE TEMURI

Turdaliyeva Gulasal Abdusalam kizi.

Independent researcher of Fergana State University,

Teacher of the 19th school of Koshtepa district

Abstract. In this article, there are detailed opinions about tax collectors and their duties during the Timurid period. Also, in the article, the opinions about the officials, views and their duties and what they should be are analyzed in the work "Temur's Laws".

Key words. History, official, faithful, written sources, ministers, "Temur's rules", righteous ruler, neighborhood elders.

Bugungi kunda Amir Temur va temuriylar tarixi ko'pgina yozma manbalarda o'z aksini topgan bo'lib, shunga ko'ra bu adabiyotlarda Amir temur va uning shaxsi bilan bog'liq ko'pgina fikrlar ham aytib o'tilgan. "Umumiy tarixning" mashhur muallifi Georg Veber Amir Temur haqida quyidagilarni qayd qilgan edi: "Temur lashkarboshi, hokim va qonunshunos sifatida yuksak talantga ega bo'lib, bilimlarga o'ch edi, olim, rassommlarga homiylik qilar va yaxshi kahfiyatda bo'lganida "odil qozi" edi".[1,29] Shu fikrlarni inobatga olganda Amir Temur o'z davlatida adolatli soliq tizimini joriy qilganligini ko'plab tarixiy manbalarda qayd etilgan. Soliqlarni undirishda to'rt tamoyilga amal qilingan. Birinchisi – soliq solish va undirishda adolatparvarlik prinsiplariga asoslanish. Bu – soliqlar miqdorini fuqarolarning daromadidan kelib chiqib belgilashni bildirar edi. Soliq undirishning ikkinchi tamoyili aniqlik tamoyili edi. Unga binoan soliq to'lovi, uning hisoblash usuli, to'lash muddati oldindan aniq belgilangan. Uchinchi tamoyil bu soliq undirishni aholiga qulay paytda amalga oshirishdan iborat edi. Fuqarolarga g'amxo'rlik qilish maqsadida joriy qilingan to'rtinchi tamoyil – soliq tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirish, soliq yig'ish xarajatlarini muttasil kamaytirib borishni ko'zda tutar edi.

Amir Temur davlatini yettita vazir boshqarganligi haqida "Temur tuzuklarida" aytib o'tilgan bo'lib, bu vazirlar:

1. Mamlakat va raiyat vaziri. Bu vazir mamlakatning muhim ishlarini, kundalik muommolari, raiyat ahvolini, viloyatlardan olingan hosil, soliq-o'lponlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlarni, mamlakatning obodonligi va aholining farovonligini ma'lum qilib turgan;

2. Sipoh bo'yicha vazir. Sipohiylarning maoshlari va tanxolarini boshqargan, parokandalikka tushib qolmasligi uchun doimo sipoh ahvolidan podshohga xabar berib turgan;

3. Egasiz qolgan, o'lib ketgan va qochib ketganlarga tegishli mol-mulkni boshqargan; zakot va bojlarni to'plagan;

4. Sarkori hosa, saltanat ishlarini yurituvchi vazir. U butun salatanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinadigan harajatlar, shuningdek, otxona xarajatlaridan ogoh bo'lgan.;

5, 6, 7. Sarhadlar va tobe mamlakatlarga tegishli ishlarni boshqaruvchi uch vazirdan iborat hayat.[2,303]

Bu vazirliklar ichida Mulkchilik va soliq ishlari vaziri - o'lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketganlarning (sayyohlar va savdogarlarning) mol-mulkidan olinadigan zakot, bojlarni, mamlakat chorvlarini, ot-uluvlarini boshqarib bularning barisidan yig'ilgan daromadni, omonat tarzida saqlash ishlari bilan shug'ullangan. U g'oyib bo'lgan va o'lganlarning mol-mulki bo'lsa, merosxo'rlarga topshirgan.[3,103]

Temur tuzuklaridagi ma'lumotlarga ko'ra bu uchinchi vazirlikda 3 ta vazir faoliyat ko'rsatgan bo'lib, birinchi vazir xalqdan olinadigan soliqlarni undirilishini kuzatgan. O'z faoliyati to'g'risida markazga ma'lumot berib bturgan. U soliqlar miqdori, soliq to'lovchining nomini yozib brogan. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqargan. Uchinchi vazir daraksiz ketgan kishilar mol-mulkini nazorat qilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruvida mahalliy erkin jamoalar va mahalla oqsoqolliklari katta rol o'ynagan. Amir Temur milliy odatlarga amal qilib, soliq yig'ish va boshqa masalalarda jamoa va mahalla oqsoqolliklarining mustaqil fikrlarini inobatga olgan.

Amir-(lug'aviy ma'nosi ishonchli kishilar) ularning moliya va qishloq xo'jaligini boshqarish ishlari bilan shug'ullangan, mahalliy va kichik ma'murlardir. Ular mahalliy hududlarda ekin yerlari, soliq yig'ish, u yerlarni nazorat qilish huquqi va vakolatiga ega bo'lgan. Shuningdek, ulardan o'z vazifasini sidqidildan bajarish talab qilingan.

Qaloqchi-hosilga qarab xiroj miqdorini aniqlab beruvchi mansabdor. Maoshi xizmatga yarasha bo'lib mingdan 10 ming miqdorigacha bo'lgan.[4,14]

Yasoqiy-soliq yig'uvchi. Yasovul yasoni amalga oshiruvchi mansabdor bo'lib, ular sarboz deb ham atalgan. Davlat ma'muriy tizimida yasoqiylar ham katta ahamiyat kasb etganlar. Davlat boyligi ravnaqining bosh manbai soliq va xirojlarning kamchiliksiz xazinaga kelib tushishi ularning halolligiga bog'liq edi. Ularning zimmasiga xalqni qiynamasdan va shuningdek, davlatni ham unutmashlik, qonundan chetga chiqmaslik vazifalari ham yuklatilgan.

Omil – umuman xizmatchi yoki amaldor ma'nolarida, soliq yig'uvchi lavozimidagi kishilar ham shunday nomlanganlar.

Daftardor – moliya mahkamasi xizmatchisi, kirim-chiqim, va oliq-soliq daftarlarini yurituvchi kichik mansabdor.

Dorug'a – tuman, shahar yoki viloyat hokimi. Soqchilar boshlig'i, ular raiyatni ro'yhatga olish, askar to'plash, soliqlarni yig'ish va podshoh saroyiga yetkazish, mahalliy hukmdorlarni nazorat qilish va boshqalar bilan shug'ullangan.

Muhosib (muhossil) – soliq va o'lpon yig'uvchi amaldor.[5,25] Bu mansabga ega amaldor tamg'a zodagonlari orasidan qo'yilgan bo'lib, ular moli omon, qaram yerlardan xiroj solig'ini yig'ishga ma'sul bo'lganlar.

Tamg'achilar - savdo-sotiqdan ba bojxona xizmati orqali keladigan tushumlarni yig'ish ishlariga ma'sul bo'lganlar.

Amir Temur biror ishni boshlasa doimo uni muvaffaqiyatli yakunlashga intilgan. U kirim-chiqimlarni, sarf-harajatlarni me'yorida olib borgan, yo'qsillarga doimiy ravishda xayr-ehsonlar in'om etib turgan.

Temur tuzuklarida “yer egasi” deb atalgan mansab haqida ham soʻz yuritilgan boʻlib, matnda “jogirdor” podshoh oldida alohida xizmatlari uchun soliq yigʻish haqi bilan yer tortiq qilingan mansabdor shaxs.

“Tuzuklarda” yozilishicha har bir suyurgʻol qilib berilgan viloyat yoki mamlakatga ikkitadan vazir tayinlangan boʻlib, birinchi vazir aholida yigʻiladigan soliq qayd qilib, aholi ahvolidan bohabar boʻlib turgan. Ikkinchi vazir esa yigʻiladigan daromadlarni qay tarzda xarj qilinayotganini hisobga olish, shu yerda mavjud harbiy qismlarga beriladigan maosh taqsimoti bilan band boʻlgan.[6,184]

Amir Temur va Temuriylar davrida soliq va tushumlarni undirishda adolatlilik tamoyili ustunlik qilgan boʻlib, soliq yigʻuvchi amaldorlarni oʻz mansablarini suistemol qilishlariga yoʻl qoʻyilmagan. Agar bunday holatlar roʻy beradigan boʻlsa, ular belgilangan qonunlarga muofiq jazolanib, mol-mulklaridan ozod qiligan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov B. Amir Temur va Ulugʻbek davri tarixi T; “Fan”, 1996 29-bet
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T; “Oʻqituvchi”, 1994; 303-b.
3. Oʻljayeva Sh. Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi; T; 2005; 103-b.
4. Temur tuzuklari. T; “Shodlik”, 2018
5. Davlat muassasalari tarixi. (oʻquv qoʻllanma). T; “Sharq”, 2007. 25-b.
6. Azamat ZiyOʻzbek davlatchiligi tarixi. T; “Sharq”, 2000, 184-b